



ASQAD MUXTORNING “TUG’ILISH” ROMANIDAGI PARALINGVISTIK VOSITALAR

Toirova Guli Ibragimovna

*Ilmiy rahbar: BuxDU O’zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini professori,
filologiya fanlari doktori*

Amonova Hilola

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada paralingvistika haqida nazariy ma'lumotlar va paralingvistik vositalarning misollar orqali tahlili keltirilgan, shu bilan birga paralingvistika sohasida tadqiqot olib borgan olimlarning mavzu bo'yicha fikrlari aytib o'tilgan. Maqolada Asqad Muxtoring "Tug'ilish" romanida qo'llangan noverbal shakllarning ma'nolari izohlangan. Asardagi bitta noverbal shaklning bir nechta ma'nolarni anglatishi aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *paralingvistika, noverbal shakl, implisit, nutqiy axborot, til strukturasi, naturalistik qarash, lab va yuz mimikasi, lingvopragmatik bo'yoqdorliik, stilistik bo'yoqdorlik.*

Kirish: O’zbek tilida dunyodagi barcha tillar kabi fikr faqat lingvistik yo'l bilan emas, balki lingvistik bo’limgan (ekstralinguistik yoki paralingvistik) vositalar- imo-ishoralar hamda implisit (bo'laklarga ajralmas) tovushlar yordamida ham ifodalanadi [6]. Inson nutq jarayonida turli xil noverbal shakllardan foydalanadi va bu shakllar fikrning jozibadorligi, ta’sirchanligiga ham ta’sir qiladi. Bizga ma'lum bo’lgan bu shakllar ancha oldin paydo bo’lgan. Paralingvistika sohasi nutq vaziyatida yuzaga keluvchi imo-ishora, mimika kabi fikriy tana harakatlarini o’rganadi. Paralingvistika atamasi tilshunoslikka 1940-yil amerikalik A.Xill tomonidan olib kirilgan [7]. Bu haqida olim V.N.Teliya shunday deydi: “Paralingvistika so’z ma’nosining ochilishiga xizmat qilishi bilan birga, ularda tinglovchining o’ziga rom qilish xususiyati ham mavjud” [2]. O’zbek olimlari tomonidan bu mavzu keng miqyosda tadqiq qilingan, jumladan, M.Saidxonovning “Noverbal vositalar va ularning o’zbek tilida ifodalanishi” nomli nomzodlik ishi o’zbek paralingvistik vositalari tadqiq etilgan birinchi monografik ish bo’lib, unda o’zbeklar aloqa-aratashuvida ishlatiluvchi noverbal vositalar tasnifi va ularning ishlatilish o’rinlari keng yoritilgan [5]. Abdulhamid Nurmonovning “Tanlangan asarlar” 1-jildida noverbal shakllar (imo-ishora)larning kelib chiqishi haqida bir qancha qarashlar keltirilgan. Paralingvistik vositalarning nutqda voqealanishi haqida hozirda ikki xil qarash mavjud. Bir guruh olimlar bu shakllarni “naturalistik qarash”, ya’ni tabiiy mimikalar deb izohlaydilar. Ikkinci guruh olimlari esa jamiyat bilan aloqador shartli hodisa deb hisoblaydilar. O’zbek, usmonli turk, ingliz va rus



muloqotida paralingvistik vositalarning lug'aviy tasnifiga ko'ra 21 ta guruhg'a ajratilib, nutqda lingvopragmatik, grammatik va stilistik bo'yoqkorlikni ta'minlashi olimlar tomonidan o'rjanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Biz bu kichik tadqiqotimizda yozuvchi **Asqad Muxtorning "Tug'ilish"** romanidagi paralingvistik vositalarni tahlil qildik. Yozuvchi asar qahramonlari nutqida imo-ishoralar, fikriy tana harakatlarini qo'llash orqali voqeanning badiiyligini oshirgan. Buni quyidagi misollar orqali ko'rishingiz mumkin:

I.Til va tanglay harakati bilan bog'liq noverbal shakllar:

1.**Hamma bir-bir qo'lga olarkan, birov qilgan ishiga, birov husniga qoyil qolib, tanglayini takillatdi** [4]. Gapda qo'llanilgan **tanglayini takillatmoq** vositasi orqali kuchli hayrat, qoyil qolish kabi ma'nolar anglashiladi. Asarda bu vosita kuchli hayratdan tashqari, afsuslanish ma'nosida ham qo'llangan. Bunga misol sifatida quyidagi gapni keltiramiz:

2.Faqat haligi yo'lakdag'i yigit tanglayini taqillatib:

-O'-o'-o'!- dedi,- men qaltis gapirib qo'ymadimmi-a, bolalar? [4]

3.Bemayman,-Rahmonqulov iyagini cho'zib, **tilini chakillatib qo'ydi**, berolmayman [4]. Keltirilgan misolda **tilini chakillatmoq** vositasi orqali keskin rad javobini berish ma'nosи aks ettirilgan.

4. –**Qurilish o'zi qayerda?- so'radi Luqmoncha tishini takillatib** [4]. Gapda **tishini takillatmoq** birikmasi inson sovuq havoda chiqaradigan, qaltirash natijasida yuzaga keladigan holat tasvirlangan.

II. Qo'l harakatlari bilan bog'liq noverbal shakllar:

1.Ish taqsim qilindi, o'rtoq Rahmonqulovning ma'ruzasini eshitdingiz,- dedi Pochchayev **qo'llarini yoyib** [4]. Misoldagi **qo'llarini yoymoq** shakli "qo'limdan hech narsa kelmaydi", ya'ni choraszizlik ma'nosida qo'llangan.

2. Jilov o'zingda bo'lmagandan keyin... **Qo'lini yozib, yelkasini qisdi-da**, o'rniga o'tirdi [4]. Bu misolda **qo'lini yozib, yelkasini qisdi** shakli orqali biror hodisadan bexabarlik ma'nosini ifodalangan.

3. **Jabborning oldinga uzatgancha muallaq qolgan qo'llari sekin yoniga osilib tushdi** [4].

4. –**Xo'p bo'ladi!- dedi Elchibek qo'l silkib** [4].

5. Bizga bu ko'prik mana mundoq kerak!-qo'li bilan kekirdagini arra qilib ko'rsatdi...[4]. Gapdagi **qo'li bilan kekirdagini arra qilib qo'rsatmoq** shakli "juda zarur" ma'nosini aks ettirgan.

6. –**Adyu. Pochcha! Boshingni ko'tar,adolat tiklanyapti!- dedi Samadiy uzun qo'lini boshidan yuqori ko'tarib siltarkan** [4].

7. **Rahmonqulov yo'lni ham ko'rolmay, yuzini burishtirib, qo'llarini siltay boshladi** [4].



Inson bug' yoki tutunli muhitda qo'lini siltab atrofini tozalamoqchi bo'ladi. Yuqoridagi gapda ham aynan mana shu holat akslantirilgan.

III. Lab va yuz mimikasi bilan bog'liq noverbal shakllar.

Mimikalar (yunoncha, mimikos-“taqlid”)- yuz mushaklarining harakatlari va boshning harakatlari tushuniladi. Bu harakatlarni ko'rsatadigan an'anaviy belgilar (boshni qimirlatish)- boshni ma'lum bir tomonga burish kabilardir [1]. Insonni tushunish va uni baholashda biz birinchi navbatda uning yuziga e'tibor beramiz [8]. Amerikalik psixolog Pol Ekman birgina tabassumning 18 ta turini aniqlaydi. Yuz mimikasining xilma-xil va murakkab ma'nolar ifodalashini asar yuzasidan berilgan misollar orqali ko'rishimiz mumkin:

1. Go'yo birov yuziga tuflaganday nimadandir jirkanib, quyuq qoshlarini xunuk chimirib o'tirdi [4]. Ushbu gapdagagi **qoshlarini xunuk chimirib o'tirdi** kuchli norozilikni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilmoqda.

2. Elchibek yerga qarab, yuzining bir tomoni bilan jilmaydi [4]. Gapdagagi paralingvistik vosita *yuzini bir tomoni bilan jilmaymoq shakli* kinoya, kamsitish kabi ma'nolarni ifodalagan.

4. –Ishga kirganimni bilishsa o'ldirishadi.

-Kimlar?

-...sheriklarim

Juman *labini tishlab qoldi* [4]. Parchadan ko'rinish turibdiki, qahramonning *labini tishlab qolishi*, uning **kuchli qo'rquv, taajjub** holatida ekanligini yaqqol ko'rsatyapti. Bundan tashqari *labini tishlamoq* shakli asarda **uyalmoq va yig'idan o'zini tiymoq** ma'nosida ham keladi. Masalan, **Humoxon chetroqqa qayrilib kulimsiradi-da, gilosday qizarib bo'rtgan kichkinagina labini sal tishlab qo'ydi**.

M: Sadbar asta uning qo'lini ushladi, ustki labini tishlab o'zini yig'idan tiydi [4].

5. Barsova birinchi marta diqqat bilan Elchibekka qaradi, “nima der ekan?” deganday lablari ochildi [4].

6. Pochchayev bunday savolni kutmagan edi, sovqotganday ko'karib turgan lablari bilan tamshanib qoldi [4].

IV. Barmoqlar harakati bilan bog'liq noverbal shakllar:

1. Amolaykim, vo!- dedi u ilmoqday qayrilgan bosh barmog'ini Kimsanning yuziga taqab [4]. Bosh barmoqning ko'rsatilishi *mamnunlik*, juda yaxshi yoki *rag'batlantirish* degan ma'nolarda keladi.

2. Bo'Imasa hayotning ma'nosi yo'q!-u o'rnidan turib barmog'ini chakkasiga taqadi,-adyu! Shoshyapman [4]. Insonlar muloqot jarayonida xayrlashish ma'nosida bir qancha harakatlarni bajarishadi. Masalan, qo'l silkitish, kaftlarni urushtirish yoki barmog'ini chakkasiga taqash kabilar. Yuqoridagi misolda



ham *barmog'ini chakkasiga taqamoq* shakli “xayrlashuv” ma’nosida qo’llangan harakatdir.

3. Bitta tirik jon tug'ishganim.- Adolat bir barmog'ini ko'rsatdi,-bitta![4] Ko'rini turibdiki, bu gapda barmoqning ko'rsatilishi bilan miqdor anglashilyapti.

4. Ish yuzasidan xolis, jiddiy tekshirish ketayotganda siz, mulla yigit, xalaqit berib nima qilmoqchisiz yoki bu jinoyatga men ham sherikman demoqchimisiz?!- Rahmonqulov Jumanning yuziga barmog'ini niqtab ko'rsatdi [4]. Quyidagi misolda barmoqning harakati orqali “ta’kid” ma’nosni yuzaga kelgan.

5. –Yaxshi yigit u. Shunday do'stlashganmizki, mana!- Juman barmoqlarini zanjir qilib ko'rsatdi... [4] Gapdag'i barmoqlarini zanjir qilib ko'rsatmoq vositasi orqali, ikki inson orasidagi yaqin munosabat haqidagi fikrni ifodalagan.

6. Rahbar xalq ichida tug'ilishi kerak. Bo'riyev “tug'ilishi” deganda ko'rsatkich barmog'ini havoga qadadi [4]. Ushbu misoldagi ko'rsatkich *barmoqni havoga qadamoq* shakli, o'z fikrini ta'kidlash, atrofdagilarning e'tiborini jalb etish kabi mazmun-mohiyatni yanada badiylashtirib ko'rsatmoqda.

V. Bosh harakati bilan bog'liq noverbal shakllar:

Muloqot jarayonida insonlar o'z fikrini bosh harakati bilan yanada dalillab ko'rsatishga harakat qiladilar. Bosh harakati bilan bog'liq noverbal shakllar faqatgina tasdiq yoki inkor ma’nosida emas, boshqa turli ma'nolarni yoritishga xizmat qilgan. Buni quyidagi misollar orqali yanada aniqroq tushunishimiz mumkin:

1. Inkor ma’nosida: Yonidagi ultarmalik bola juda sergap bo'lishiga qaramay, bu safar sal o'ylab “yo‘q” ma’nosida bosh qimirlatib qo‘ydi, xolos [4].

2.Fikrni ma'qullah: Nafisa jilmayib, bosh silkib, aftidan gapni ma'qullab o'tirgan edi [4].

3. Fikr holatiga kirish: Dam yolvorib, dam jahli chiqib, hayajon bilan gapirgan gapini jilmaygancha, boshini sarak-sarak qilib o'tirib tingladi [4].

4.Rozilik berish ma’nosida: Juman Bekka qaradi. Bek “xo‘p” deb bosh qimirlatdi-yu tutingan akasining bag'riga yanada mahkamroq yopishdi [4].

5.Ruxsat berish ma’nosida: Elchibekka qaradi. Boshliq “gapiravering” deb bosh irg'adi [4].

6. Ma'lum bir yo'nalishga ishora qilish ma’nosida: Juman bosh irg'ab Kimsan tomonni ko'rsatdi [4].

7. Tasdiqlash ma’nosida: Solijon gapning kim haqida ekanini anglab, “ha” degan ma’noda bosh silkidi [4].

8. Achinish ma’nosida: Silos minori tomonidan kiriladi...- u bosh silkib, mehr va hasrat bilan orqasidan qarab qoladi [4].

XULOSA



Demak, paralingvistik vositalar fikrni yanada mukammallashtirib yetkazish uchun foydalaniladigan tana harakatlari hisoblanadi. Yuqorida misollardan xulosa qilishimiz mumkinki, imo-ishoralarning qo'llanishi nutq uslublariga ham bog'liq. Tantanali nutq uslubida imo-ishora, mimikalar ham tantavor shaklda bo'ladi. Imo-ishoralarning yuzaga kelishida nutq vaziyati ham katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bir xalqning faqat tilini emas, balki uning madaniyati, muloqot qoidalarini o'rganish ham muhim omillardan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurazzakova M. Noverbal muloqot va uning kommunikatsiyadagi o'rni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2023,3(2)
2. Ahmedov H. Paralingvistik (imo-ishoraga asoslangan) frazeologizmlar.(2021) Academic research in educational sciences,(2).
3. Mirzayeva D, Xolmatova Z.Paralingvistika tarixi, hozirgi davr novebal vositalari va ularning reklamadagi ahamiyati//Fars IntJ Edu Soc Sci Hum10(11); 2022.
4. Muxtorov A. Tug'ilish. Roman./Tanlangan asarlar, ikkinchi tom.-T.:G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.-280 b.
5. Nizomova Z. Pralingvistikaning nazariy jihatlari. STARS university-pp151-156.
6. Nurmonov A. O'zbek paralinvistik vositalari//Tanlangan asarlar.1-jild.-T.:Akademnashr, 2012.- 414 b.
7. Toirova G., Oripova P. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy -madaniy xususiyatlari, Google schoolor jurnali, 2024. –B. 96-100
8. Toirova G., Oripova P. Gratitude expresses pragmatic meanings ,Published March 2, 2024, Multidisciplinary and Multidimensional journal , - B.280 -284
9. Temirova F. Noverbal kommunikatsiya-paralingvistikaning o'rganilish tarmog'i sifatida//Science and innovation international scientific journal,2022(4).
10. Степанов С. Язык внешности (Жесты, мимика, черты, лица, почерк и одежда),2001г.